

AMALIY PSIXOLOGNING FAOLIYATIDAGI MUAMMO VA YECHIMLARI

Saidova. N.I.

Nizomiy nomidagi TDPU

“Amaliy psixologiya” kafedrasи o‘qituvchisi

Karimova. R.Q

“Pedagogika va psixologiya” fakulteti talabasi

Kalit so‘zlar: amaliy psixolog, MDH, test, so‘rovnoma, trening , ta’lim muasssa, muammo, psixolog shtati, maktab rahbariyati, pedagogik jamoa.

Amaliy psixologiya kundalik muammolarni hal qilish, hayot sifatini oshirish yoki odamlar guruhlarini yetarlicha ishlashini ta’minalash maqsadida olingan bilimlar va asosiy psixologiya tomonidan ishlab chiqilgan usullaridan foydalanishdan iborat. **Psixolog** - bu aqliy hayotni va inson xatti-harakatlarini to‘g‘rilash qonuniyatlarini o‘rganadigan, bu bilimlarni odamlarga yordam berish va ularning faoliyatini optimallashtirish uchun ishlatadigan mutaxassis. Agar biz psixologiyaning mazmunini hozirgi davr talabidan kelib, tushuntiradigan bo‘lsak, shunday ta’rif berishimiz mumkin: «Psixologiya fani psixik jarayonlar va inson shaxsining psixologik xususiyatlari haqidagi fandir» Amaliy psixologiya fani ijtimoiy-siyosiy tabiiy va pedagogik fanlar bilan hamkorlikda inson tabiatiga xos bo‘lgan bir qancha muammolarni o‘rganadi. Amaliy psixologiya fanining **asosiy vazifasi** - o‘savotgan barkamol avlodning o‘zini mustaqillik mafkurasi orqali shakllantirish, tarbiyalash.

Amaliy psixologiya ruhiy hodisalarning asil tabiatini, ularning paydo bo‘lib, qanday sabablarga binoan o‘zgarishlarini mavjud hayotiy misollar asosida tushuntirib beradi. Bundan tashqari amaliy psixologiya fani **MDH** xalqlari o‘rtasida turli ma’naviy-

ijtimoiy siyosiy munosabatlarni atroflicha chuqur o‘rganib , do‘stlik va birodarlik munosabatlarini yanada yuksak darajaga ko‘tarishga yordam beradi.

Psixologiya sohasida ko‘proq faoliyat olib boriladigan, ko‘plab muammolar yuzaga keladigan yo‘nalish ta’lim muassasalari hisoblanadi. **Ta’lim muassasalaridagi psixolog-** yosh avlodni katta hayotda o‘z o‘rnini topip ketishida ota-onasi, o‘qituvchisidan keyingi muhim vazifani bajaradi. Mening fikrimcha, hozirgi kunda maktab psixologi faoliyatini tashkil qilish samarasiz yo‘lga qo‘yilmoqda. Psixologning ta’lim muassasalarida faoliyat olib borishida bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda. Hozirda psixologlarning duch kelayotgan asosiy muammolariga quyidagilar misol bo‘ladi:

1.Psixologiya darsini o‘tilmasligi

Psixologiya fani uchun dars jadvallarida alohida soat ajratilmagan. Aytaylik psixolog o‘quchilar uchun turli treninglar yoki test so‘rovnomalar o‘tkazmoqchi lekin bunga ma’lum bir soat vaqt ajratilmagan. Masalan psixolog o‘quvchilardagi qobiliyatlarni aniqlash uchun test olishi kerak bo‘lsa, qaysidir o‘qituvchining darsini buzishiga to‘g‘ri keladi. Test 20-30daqiqaga mo‘ljallanga bo‘lsa testni 5 daqiqada nomigagina belgilatib oladi va bu esa testni natijasiga salbiy ta’sir etadi. Mening fikrmcha bu muammoni bartaraf etishni birgina yo‘li haftada bir soat psixolog soati yoki psixologiya darsi bo‘lishi kerak.

2. Psixologik testlarni eskiligi.

Men hozir psixologlar foydalanayotgan testlarni eskirgan yaroqsiz deb hisoblayman. Chunki bu testlar ishlab chiqilgan davr yoshlari bilan hozirgi yoshlarni fikrashi dunyoqarashida yer bilan osmonchalik farq bor. Bu testlarni eskirganiga asosiy sabab akseleratsiya “jadallahish”. O‘ylaymanki, test va so‘rovnomalardan ko‘ra turli treninglar o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3.Psixologning shtatidagi muammolar

Psixologning shtatidagi muammolarga keladigan bo‘lsak shtatdagi psixologlarning sonini ko‘paytirish kerak deb hisoblayman. O‘ylashimcha, ta’lim muassasalarida psixologlar soni 3 tadan kam bo‘lmashigi kerak. Ixtisoslashgan va

shahar maktablarda shunday ammo chekka -chekka viloyatlarda psixologlar soni bittadan oshmaydi. Biri psixolog o‘qituvchilar bilan, biri qiz bolalar bilan yana biri esa o‘g‘il bolalar bilan ishlashi kerak. Shtatda ham erkak ham ayol psixologi bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki qiz bolani muammosini uning holatini qiz bola, o‘g‘il bolaning holati yoki unda yuzaga keladigan muammolarni faqat o‘g‘il bola chunadi. 3-psixolog o‘qituvchilar bilan ishlashi kerak.

4.Psixologning mактабдаги mavqeyi

Psixolog- Rivojlangan mamlakatlarda mактаб psixologi direktordan keying o‘rinda turadigan shaxs hisoblanadi. Direktor biror qaror qabul qilishda yoki biror mutaxassisni ishga qabul qilishda psixolog bilan maslahatlashadi. Bizdachi? Qo‘pol qilib aytilsa psixolog mayda -chuuya ma’naviyat hodimlarini ishini bajarib yuruvchi shaxs hisoblanadi. Albatta, psixolog bu ishlarni mактаб rahbariyatiga yaxshi ko‘rinish uchun qiladi. Lekin, rahbariyatga yaxshi ko‘rinishni boshqa yo‘llari ham bor.

5.Ota onaning farzandlariga befarqligi

Aytaylik; O‘qituvchi biror bir o‘quvchida o‘zgarish sezdi bunda u mактаб psixologi bilan maslahatlashadi. Psixolog u o‘quvchi bilan gaplashgan vaqt muammo oilasida ekanini biladi va ota onasiga bu ma’lumotni yetqizish uchun mактабга kelishini aytadi. Ota onani esa mактабга kelishga vaqt yo‘q. Hozirgi kunda bu muammo nafaqat psixologlarning balki o‘qituvchilarning ham mammosi. Ota onalar majlisiga kelmaydiga ota-onaliga psixolog chaqirganda kelarmidi? Bolaning o‘smirlik payti eng o‘g‘ir davri bo‘ladi va bu davrda bola muammolarsiz o‘tishida ota –ona va mактаб psixologi birga ishlashi kerak. Ammo bizda ba’zi biro ota -onalar hatto mактаб psixologini telefon raqamini ham bilmaydi.

Hozir ko‘pgina mактаб direktorlari va ma’naviyatchilarning bizda psixolog ishlamaydi yoki psixolog o‘zi niaga kerak degan tanqidiy fikrlarni eshitamiz. Endi fikrlab ko‘raylik psixolog nima qilsin qaysi bir ishga vaqt ajratsin? Ma’naviyatdagi qog‘ozbozlik ishlarigami yoki o‘quvchilarda test o‘tkazish uchun o‘qituvchidan iltimos qilsinmi? shuni ham aytib o‘tishim kerakki, Psixolog mактабга borgandan so‘ng pedagoglar jamoasi va mактаб rahbariyati bilan aloqani yaxshilashi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim joizki, qachonki biz bu muammolarni hal qilmasak psixolog mavqei yildan yilga tushib boraveradi. Psixolog o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan ishlash o‘rniga keraksiz bo‘lgan hujjatbozlik ishlari bilan shug‘ullanib yuraveradi.. Davlatimiz rahbari **Shavkat Miromonovich Mirziyoyev** – “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”-deganlaridek biz avval ta’lim muassasalaridagi muhitni o‘zgartirishimiz zarur. Ya’ni **biz chet elga emas, chet eldagilar bizga taqlid qilishi kerak.**

Shu asnoda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “**Erishilgan yutuqlarga mahliyo bo‘lib o‘tirish taraqqiyot yo‘lidagi eng katta g‘ovdir**”. Muammolarni kichikligida hal qilmasak u kattalashgan sari unga yechim topish yo‘li ham qiyin bo‘lib borad. Katta shaharlarda ham kichik muammolar bo‘lib turadi. Muammoni topish emas balki, uni hal qilish kerak. Shuningdek, Biz qachon o‘zimiz o‘zgarmasak, bizni hech kim o‘zgartirmaydi. Biz qachon o‘zimiz rivojlanish uchun yuksalish uchun harakat qilmasak, biz uchun hech kim harakat qilmaydi. Muammoni hal qilish uchun biz o‘zimizni o‘zgartirishimiz kerak ya’ni bir xillikdan chekinishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. N.Boymurodov. Amaliy psixologiya . –Toshkent: “Yangi asr avlod” 2009-yil 316bet
2. E.G‘.G‘oziyev. Psixologiya. –Toshkent: “O‘qituvchi “ nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008-yil 346 bet
3. D.A.Abdurahmonova , R.A.Mavlonova. Psixologik mahorat. –Toshkent: “Fan va texnologiya “, 2002-yil 240-bet.
4. B.M.Umarova To.Raxmonova. Psixologiyaga kirish . –Toshkent: “Fan va texnologiya “, 2013-yil 260- bet.